



O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA DUCH  
KELINAYOTGAN MUAMMOLAR VA ULARGA YECHIMLAR

**Abdullayeva Yodgora Qilichbek qizi**

*Ipak yo'li turizm va madaniy meros xalqaro universiteti*

*Xalqaro munosabatlar yo'nalishi 2-kurs talabasi*

[Yodgorabdullayeva07@gmail.com](mailto:Yodgorabdullayeva07@gmail.com)

**Annotatsiya :** *O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng juda ham ko'p sohalarda jumladan turizm sohasida ham o'zgarishlar bo'ldi. Xususan, 2017 yildan boshlab turizmni rivojlantirishga qaratilgan etiboor keskin oshdi. Shu vaqtdan boshlab O'zbekiston qo'shni davlatlar uchun ochiq davlatga aylandi, ko'plab davlatlar bilan vizasiz rejimni yo'lga qo'ydi. Bilamizki O'zbekistonning ko'p asrlik tarixi ko'plab sayohatchilarni o'ziga jalb qilib turadi va shu tufayli O'zbekiston turizm sohasida ilgarilab bormoqda. Ushbu maqolada siz o'zbekistonning ichki turizmi, gastronomik turizm, qishloq turizmi va ekoturizming yangi qirralari, turizmni rivojlantirish uchun qilinayotgan islohotlar va undagi muammolar haqida malumotlarga ega bo'lasiz.*

**Kalit so'zlar;** *ichki turizm, gastronomik turizm, qishloq turizmi, o'zbekiston tarixi, ekoturizm, islohotlar, turizmdagi muammolar.*

**Аннотация:** *после обретения Узбекистаном независимости произошли изменения в огромном количестве сфер, в том числе и в туризме. В частности, с 2017 года резко возросло внимание к развитию туризма. С тех пор Узбекистан стал открытым государством для соседних стран, установив безвизовый режим со многими странами. Мы знаем, что многовековая история Узбекистана привлекает многих путешественников, и благодаря этому Узбекистан продвигается в сфере туризма. В этой статье вы найдете информацию о внутреннем туризме Узбекистана, гастрономическом туризме, новых аспектах сельского туризма и экотуризма, реформах, проводимых для развития туризма, и проблемах в нем.*

**Ключевые слова;** *внутренний туризм, гастрономический туризм, сельский туризм, история Узбекистана, экотуризм, реформы, проблемы туризма.*

**Annotation:** *after the independence of Uzbekistan, there were changes in a huge number of areas, including tourism. In particular, since 2017, the focus on the development of tourism has increased sharply. Since then, Uzbekistan has become an open state for neighboring countries, establishing a visa-free regime with many countries. We know that Uzbekistan's centuries-old history attracts many travelers, and thanks to this, Uzbekistan is making progress in the tourism sector. In this article, you will get information about domestic tourism of Uzbekistan, gastronomic tourism, new facets of Rural Tourism and ecotourism, reforms being made for the development of Tourism and problems in it.*

**Keywords;** *domestic tourism, gastronomy tourism, rural tourism, history of Uzbekistan, ecotourism, reforms, problems in tourism.*



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



**O'zbekistonda turizm: "kecha va bugun"** O'zbekiston 30 yildan ziyod mustaqil va taxminan 10 yildan buyon turizm rivojlanishiga katta etibor qaratilmoqda.



Statistikaga qaraydigan bo'lsak o'zbekistonga turistlar kelish soni 2017-yilda 2.7 million bo'lgan 2018 va 2019 yillarda turistlar kelishi rivojlangan va 2020-yilda covid 19 tufayli turistlar kelish soni keskin qisqargan. 2021 yildan boshlab yana oshishda davom etgan va hozirda yani 2023 yilga kelib O'zbekistonga tashrif buyurgan sayohatchilar soni 6.6 millionga yetgan. O'zbekiston 20 yilga yaqin qo'shni davlatlar uchun yopiq siyosat olib borar edi va 2017 yildan buyon yurtimiz eshiklari barcha davlatlar uchun ochilgani sababli kelayotgan sayohatchilar soni keskin ochildi.

Source: <https://stat.gov.uz/en/uzbekistan-tourism-industry-statistics>

Country	Number of Tourists to Uzbekistan in 2022
Russia	1,591,100
Ukraine	1,407,000
Poland	1,358,000
France	567,700
Turkey	75,600
South Korea	71,900
Germany	71,200
India	70,800
USA	62,100
Spain	61,800
Great Britain	61,300
Azerbaijan	61,000
Italy	5,800
Japan	5,200

Quyidagi statistikaga qaraydigan bo'lsak 2022 yilda o'zbekistonga tashrif buyurgan sayohatchilarning juda ko'pchiligi o'rta osiyo davlatlaridan hisoblanadi. 1.5 million tashrif buyuruvchi bilan qozog'iston birinchi o'rinni egallab turgan bo'lsa, Tojikiston va Qirg'iziston 1 milliondan ortiq sayohatchilar bilan 2 va 3 o'rinni egallab turibdi.

### Turizming turlari

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri bu Milliy Turizmdir, dedi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, - O'zbekiston turizm sohasida katta salohiyatga ega davlatdir.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Mamlakatimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros ob’ektlari mavjud va ularning aksariyati YuNESKO ro’yxatiga kiritilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizning o’ziga xos tabiati, go’zal dam olish zonalari imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi sayyohlik yo’nalishlarini ochish mumkin. Jahon brendlarining faol ishtiroki bilan ushbu sektorda biz turizm, ekologik ma’rifiy, etnografik, gastronomik, turizm va boshqa sohalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak. Shu munosabat bilan biz davlat va xususiy sheriklik munosabatlarini qo’llash sohani rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochishini hisobga olishimiz kerak. Samarqand, Buxoro, Xorazim, Surxondaryo va Toshkentdagi muqaddas qadamjolarini va yodgorliklarni ziyorat qilishdan iborat bo’lgan “Kichik haj” dasturini ishlab chiqish va tezlashtirish zarur. Shuningdek, ichki turizm sohasida keng ko’lamli imkoniyatlarni to’liq ishga tushirish zarur (МИРЗИЁЕВ, 2018)

Tarixiy madaniy turizm, ziyorat turizmi, gastronomic turizm, ekoturizm ichki turizming turlari hisoblanadi.

O’zbekistonning buyuk tarixi va ularning isboti sifatida qad ko’tarib turgan obidalarimiz sayyohlarni o’ziga eng ko’p jalb qiluvchi kuchli jihatimiz hisoblanadi. hozirda O’zbekistonda ushbu sohani rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud bo’lib, xalqning boy tarixi va madaniyatini aks ettiruvchi noyob madaniy merosni asrab avaylashni kuchaytirish sohani raqamlashtirish, innovatsion rivojlantirish va moddiy–texnika bazasini mustahkamlash, jahonning ilg’or tajribalarini samarali qo’llash hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biridir. Tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishda hududlarda mavjud bo’lgan tarixiy hamda arxeologik obyektlarning o’rni muhimdir. Ularning tarixiyliigi, hudud tarixida tutgan o’rni hamda saqlanganlik darajasi unga qiziquvchi turistlarning sonini oshishiga yordam beradi Har qanday tashrif buyuradigan sayyoh uchun bir manzilgohda bir nechta obyektlarning mavjud bo’lishi, uning safar vaqtining davomiyligini uzaytirib beradi.

Ziyorat turizmi. Mamlakatimiz nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun jahonda ham turizm markazlaridan biri hisoblanadi. Ma’lum hududda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishda shu joyning tarixiy-madaniy obyektlari asosiy o’rinni egallaydi. Lekin ulardan alohida muhim ahamiyatga egalari xalqaro miqyosdagi obyektlar va yodgorliklar ro’yxatiga kiritiladi. Bunday ro’yxatni YUNESKO har yili aniqlab boradi. Keyingi yillarda O’zbekiston hududidagi noyob madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, tarixiy shaharlarning bosh loyihasi va menejment rejasini YUNESKO xalqaro standartlari hamda talablariga muvofiq ishlab chiqishda mazkur tuzilmaning xalqaro ekspertlari ham keng jalb etilmoqda. YUNESKO bilan yaqin hamkorlikda moddiy va nomoddiy meros obektlarini asrashga doir turli xalqaro anjumanlar tashkil qilinmoqda. Mazkur chora-tadbirlar madaniy yodgorliklarni muhofaza qilishni oqilona tashkil etish va boshqarishni hamda shu sohadagi dolzarb muammolarni ko’rib chiqish, xalqaro tajribani o’rganish, tarixiy-madaniy meros saqlanishini ta’minlashga doir milliy tizimni takomillashtirish, bu boradagi davlat va





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini aniqlash imkonini bermoqda. (Erkayeva. B. A)

Gastronomic turizm . **Gastronomik turizm**, yoki **oshxona turi**, turizmning asosiy turlaridan biri bo‘lib, asosiy maqsadi, sayyohlarning ma‘lum bir mamlakatga, sayohat qilishi asnosida, o‘sha davlatning milliy oshxonasi va ovqatlanish madaniyati bilan ham, yaqindan tanishishidir. Gastronomik sayyoh , birinchi navbatda madaniyatning ajralmas qismi hisoblangan, milliy va an‘anaviy taomlarni, tayyorlash jarayoni, dasturxonga tortish usullari, ovqatlanish tartibi va pozitsiyalarini, ko‘rish va bilish barobarida, sayohat qilayotgan davlatining, tarixini, iqtisodiyotini, davlat siyosati hamda mahalliy aholining e‘tiqodlarini o‘rganadi.

Ekoturizm ekoturizm. "Ekologik turizm yoki ekoturizm — tabiatni muhofaza qilishni targ‘ib qiluvchi, atrof-muhitga "yumshoq" ta'sir ko'rsatadigan, mahalliy aholining faol ijtimoiy-iqtisodiy ishtirokini ta'minlaydigan tabiat va madaniy diqqatga sazovor joylarni o'rganish va zavqlanish uchun buzilmagan tabiiy hududlarga nisbatan atrof-muhitga mas'uliyat bilan sayohat qilish, ushbu faoliyatdan foyda olish.

Turizmdagi muammolar. Turizm o‘zbekistonda juda yaxshi rivojlanganligiga qaramasdan ba‘zi bir muammolar hali ham o‘z yechimini topa olgani yo‘q. Viloyatlararo transport tizimining yetarlicha shakllanmaganligi tufayli poyezd, samolyotlarga chiptalar yetishmovchiligi kuzatilmoqda. Yo‘llardagi nosozliklar tufayli aksariyat turistlar shikoyat ham qilishmoqda. (**Isadjanov A.A** ) Bundan tashqari xizmat ko‘rsatish sohasini yuqori darajada egallagan kadrlar yetishmovchiligi tufayli mehmonxonalar, mexmon uylari va turistik obyektlarda sayyohlar talablari bajarilmay qolayotgan holatlarni ham ko‘rishimiz mumkin. Kadrlar yetishmovchiligining yana bir dalili turistik obyektlardagi gidlarda ham yaqqol seziladi. Misol uchun turistik obyektlarga tashrif buyurgan sayyohlarning ko‘pchiligi gidlarning ingliz va rus tillarini yaxshi bilishini ammo ispan, italyan , xitoy tillaridagi gidlar kamligidan shikoyat qilishadi. Bu muammolarni hal qilish uchun yurtimizda turizmga katta etibor qaratilmoqda va shu bilan birga malakali mutaxassislarni sonini oshirish maqsadida Samarqand shahrida O‘zbekistondagi ilk turizm universiteti bo‘lmish “ipak yo‘li turizm va madaniy meros xalqaro universiteti”ni ham tashkil qilishgan. Va uning qoshidagi turizm akademiyasi ham har yili 100 dan oshiq malakali mutaxassislarga tahsil bermoqda.

Xulosa

Bugungi kunda iqtisodiyotimizda turizmning ulushini oshirish, yangi ish o‘rinlari tashkil qilish, aholi turmush darajasini yaxshilash, ish bilan band bo‘lgan aholi qatlamini ijtimoiy himoya qilish ularni dam olishlarini mazmunli tashkil etish maqsadida mamlakatimiz prezidenti tomonidan bir qator farmon, qarorlar qabul qilinib, ularning ijrosi bo‘yicha yirik ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Turizmni rivojlantirish mamlakatning savdo, transport, aloqa, qishloq xo‘jaligi, qurilish, iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarish kabi muhim iqtisodiy tarmoqlariga rag‘batlatiruvchi ta'sir ko'rsatishdan tashqari, iqtisodiy qayta qurishning eng istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xalqaro xizmatlar savdosida turizmning ulushi XXI asr boshidan beri qariyb 30 % ni tashkil etib keldi, u eksportdan kelayotgan eng yuqori



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



daromadni ta'minladi . Jahon turistik tashkiloti (UN Tourism) ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda turizm industriyasi hissasiga jahon YaIMning 10,3%, jahon eksportining 7%, xizmatlar eksportining 27,4%, capital qo'yilmalarining 9%, iste'mol xarajatlarining 11%, soliq tushumlarining 5%dan ziyodi to'g'ri kelgan, turizm sektori aholi bandligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, pandemiyagacha bo'lgan davrda iqtisodiyotda band bo'lgan har 11 kishining bittasi shu sohada faoliyat ko'rsatgan[2]. Biroq, COVID-19 pandemiyasi industriyaga katta zarar yetkazdi. Shunga qaramay turizm iqtisodiy faoliyatning yuqori daromad keltiruvchi yo'nalishi hisoblanadi, bir qator mamlakat va mintaqalarning iqtisodiy rivojining katalizatori vazifasini bajaradi. Ichki turizm mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida strategik ahamiyatga ega bo'lgan sohalardan biridir. U aholi uchun qulay va nisbatan arzon sayohat imkoniyatlarini yaratib, fuqarolarning o'z yurtini chuqurroq bilishi, tarixiy-madaniy merosga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda milliy qadriyatlarga hurmat ruhini mustahkamlaydi. Ichki turizm orqali nafaqat mashhur turistik markazlar, balki chekka hududlar, qishloqlar va kam tanilgan maskanlar ham rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ichki turizmning rivojlanishi mahalliy iqtisodiyotga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mehmonxona xo'jaligi, transport, umumiy ovqatlanish, hunarmandchilik va xizmat ko'rsatish sohalarida yangi ish o'rinlari yaratiladi, kichik va o'rta biznes subyektlari faoliyati kengayadi. Bu esa aholi daromadlarining oshishiga, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarning kamayishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ichki turizm mavsumiy ishsizlik muammosini yumshatishga ham yordam beradi. Madaniy va ma'naviy jihatdan ichki turizm yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Tarixiy obidalar, muzeylar, milliy bog'lar va an'anaviy festivallarga tashrif buyurish orqali aholining o'z milliy o'zligiga bo'lgan faxr hissi kuchayadi. Bundan tashqari, ichki turizm ekologik madaniyatni oshirish, tabiatni asrash va barqaror rivojlanish tamoyillarini keng targ'ib etishga imkon yaratadi. Xulosa qilib aytganda, ichki turizmni rivojlantirish infratuzilmani takomillashtirish, xizmatlar sifatini oshirish, zamonaviy marketing va raqamli texnologiyalarni joriy etishni talab etadi. Davlat va xususiy sektor hamkorligida amalga oshiriladigan samarali siyosat ichki turizmni barqaror rivojlanish yo'liga olib chiqadi. Natijada, ichki turizm mamlakat iqtisodiy barqarorligini mustahkamlovchi, madaniy merosni asrovchi va jamiyat farovonligini oshiruvchi muhim omilga aylanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисида 11.09.2023 йилдаги ПФ-158-сон фармони.  
<https://lex.uz/docs/6600413>



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



2. Travel & Tourism set to Break All Records in 2024, reveals WTTC.  
<https://WTTC.org/news-article/travel-and-tourism-set-to-break-all-records-in-2024-reveals-WTTC>

3. O'zbekiston Respublikasining "Turizm, sport va madaniy meros sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PF-6199-farmoni. 2021 yil 6-aprel. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrizabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi 939-son qarori. 23.11.2017 yil // <https://www.norma.uz>

5. Ван Циншен, Историко-культурный туризм и развитие туристических городов  
Культура народов Причерноморья. 2002. №35. С.11-15

